

BUXORO MAQOM MAKTABIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANASI VA ULARNING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI



Rasulov Uktamjon Ulmasovich

Yunus Rajabiy nomidagi O'z.MMSI
"Maqom xonandaligi" kafedra mudiri v.b

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro maqom maktabining tarixiy ildizlari, ijro uslublari va ustoz-shogirdlik an'anasining shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Ushbu tizimning san'atni avlodlardan avlodga yetkazishdagi o'rni, pedagogik va ma'naviy ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy ta'lim tizimi, innovatsion yondashuvlar va xalqaro hamkorlik doirasida ustoz-shogird an'alarining qay tarzda rivojlanib borayotgani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro maqom maktabi, ustoz-shogird, an'ana, ijro, maqom, innovatsiya, maqom.

Аннотация: В этой статье анализируются исторические корни бухарской школы макама, ее стильовые традиции и эволюция системы мастер-ученик. Подчеркивается педагогическое, культурное и духовное значение этой системы в передаче искусства из поколения в поколение. В работе также рассматривается, как эти традиции адаптируются к современным образовательным системам, инновационным подходам и международному сотрудничеству.

Ключевые слова: Бухарская школа макамов, учитель-ученик, традиция, исполнение, макам, инновация, макам.

Annotation: This article analyzes the historical roots of the Bukhara maqom school, its stylistic traditions, and the evolution of the master-disciple system. It highlights the pedagogical, cultural, and spiritual significance of this system in transmitting art from generation to generation. The paper also examines how these traditions are being adapted to modern education systems, innovative approaches, and international cooperation.

Keywords: Bukhara school of maqams, teacher-student, tradition, performance, maqam, innovation, maqam.

O'zbek musiqa madaniyati asrlar davomida xalqimizning dunyoqarashi, ruhiyati va ijtimoiy hayotini aks ettirib kelgan. Ana shu bebaho xazinaning yirik tarmoqlaridan biri sifatida Buxoro maqom maktabi ajralib turadi. U o'zining og'ir-bosiq, falsafiy teranlikka ega bo'lgan ohanglari va mukammal ijro uslublari bilan milliy musiqa san'atimizning eng yuksak namunasidir.

Buxoro qadimdan Sharqning madaniy, diniy va siyosiy markazlaridan biri bo'lib, bu yerda shakllangan maqom san'ati ham yuqori darajada rivojlangan. Maqomlar faqat musiqiy hodisa emas, balki xalqning ma'naviy hayotini ifodalovchi, tarbiyaviy vazifani ham ado etuvchi san'at sifatida qadrlangan. Bugungi kunda ham bu an'alar milliy merosimizning eng muhim qismini tashkil etib, yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiy manbalar, maqomshunos olimlarning ilmiy qarashlari va ustoz san'atkorlarning amaliy tajribasidan foydalanildi. Kuzatish, tahlil, qiyosiy o'rganish hamda tarixiy-kulturologik yondashuv asosida maqom maktabining ustoz-shogird tizimi keng yoritildi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim resurslari orqali bu tizimning bugungi kundagi amaliy ahamiyati ham tahlil qilindi.

Natijalar. Buxoro maqom maktabida ustoz-shogirdlik tizimi san'atni o'rgatish va merosni asrab-avaylashning eng samarali vositasi sifatida shakllangan. Ustoz shogirdiga faqat kuy va

ashulani emas, balki san'at falsafasini, axloqiy qadriyatlarni, ijodiy intizomni ham o'rgatgan. Shogird esa ustozning tajribasidan ilhomlanib, o'z uslubini yaratishga intilgan. Tarixda Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Fayzulla Toshmuhammedov singari ustozlar katta maktab yaratib, nafaqat ijrochi, balki komil insonlarni tarbiyalagan. Ularning tajribasi tufayli Buxoro maktabi o'zining mukammal ijro uslublarini asrab qolgan. Bugungi kunda esa mazkur tizim nafaqat san'at maktablarida, balki oliy ta'lim muassasalarida ham davom ettirilmoqda. Ustoz-shogirdlik tizimi orqali yoshlar milliy san'atni chuqur o'zlashtirmoqda, ularning musiqiy tafakkuri, ma'naviy dunyoqarashi va kasbiy malakasi kengaymoqda.

Muhokoma. Ustoz-shogird tizimi faqat o'quv jarayoni emas, balki hayotiy maktabdir. Bu jarayonda ustoz shogirdiga sabr, sahna madaniyati, ichki poklik kabi fazilatlarni ham singdiradi. Shu sababli, Buxoro maqom maktabi ijrochiligi nafaqat musiqiy bilim, balki insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi tizim sifatida qaraladi.

Zamonaviy davrda ushbu tizim davlat siyosati, xalqaro hamkorlik, raqamli texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko'tarildi. Maqom asarlari yozib olinib, elektron kutubxonalar orqali keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Xalqaro festival va tanlovlar esa bu merosning butun dunyoda targ'ib qilinishiga xizmat qilmoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan, ustoz-shogird tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- faoliyatni ongli anglash va unga mas'uliyat bilan yondashish;
- ilmiy va ijodiy izlanishda puxtalik;
- nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish;
- shogirdning yosh va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;
- mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish.

Shu tarzda ustoz-shogird tizimi nafaqat musiqiy mahoratni shakllantiradi, balki shogirdlarda milliy qadriyatlarga hurmat, kasbga sadoqat va ma'naviy barkamollikni ham tarbiyalaydi.

Musika sohasidagi ustoz-shogirdlik faoliyatni tahlil etishda, avvalo, "musika pedagogikasi" tushunchasiga aniqlik kiritish zarur. Bu fan insoniyat tarixi, pedagogika fanining shakllanishi va musika madaniyatining turmush tarzining ajralmas qismi sifatida yuzaga kelgan qadimiy davrlarga borib taqaladi. Bugungi kunga qadar musika ta'limi va tarbiyasi insoniyatning estetik tarbiyasi, ruhiy olami va ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin egallab kelmoqda.

Sharq mutafakkirlari bu borada muhim nazariy qarashlarni ilgari surganlar. Masalan, davlat arbobi va yozuvchi Kaykovus "Qobusnoma" asarining "Hofizlik va sozandalik zikrida" nomli 36-bobida sozandalarga pand-nasihatlarni yo'llagan. Unda cholg'uchilarga barcha kuylarni bir xil chalmaslik, balki tinglovchilar kayfiyati, yig'ilish sababi va davra ruhiyatiga moslashgan holda ijro etish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa musiqiy ijrochilikda pedagogik yondashuvning qadimiy ildizlarga ega ekanidan dalolat beradi.

Forobiy, Jomiy, Xusayniy, Changiy, Ibn Sino, Kavkabi kabi allomalar musika ilmi va ta'limiga oid risolalar yozib, musiqiy-pedagogik qarashlarni rivojlantirgan. Ularning asarlari bugungi kunda ham pedagogik o'quv qo'llanma sifatida qadr-qimmatini yo'qotmagan. Ushbu bilimlar asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, metodik tajribalarni boyitishda ko'priq vazifasini bajarmoqda.

Musika ta'limi jarayonida alohida metodikalarning ishlab chiqilishi va atqli musiqachilarning tajribasi katta ahamiyat kasb etadi. Musika pedagogikasining turli bo'limlari — ijrochilik, kompozitsiya, musiqashunoslik, tinglash, ijod, idrok va ma'rifiy faoliyat kabi sohalarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu bilim va ko'nikmalar tabiiy emas, balki o'qitish va tarbiya jarayonida shakllanishi ma'lum. Shu bois, talabalarda zaruriy musiqiy xotira, tafakkur, tasavvur, eshitish, ovoz, ritm va ijro texnikasini rivojlantirish ustozning pedagogik mahoratiga bevosita bog'liq.

Mashhur musiqachilar ham bu borada qimmatli fikrlar bildirganlar. Masalan, kompozitor I. Gofman o'quvchi har bir nota, ritm va garmonik ko'rsatmani to'liq anglamaguncha cholg'uga yaqinlashmasligi lozimligini, chalish esa bilgan bilimlarni qo'llar orqali ifodalashdan iborat ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, V.A. Uspenskiy XX asrning 30-yillarida maqom va xalq musiqasi asosida

ikki va to'rt qo'l uchun fortepiano asarlarini yaratib, ularga "Muhammasi Iroq", "Miskin", "Samoyi Dugoh", "Usmoniya", "Rajabiy" kabi nomlar bergan. Bu yondashuv musiqa pedagogikasini zamonaviy asarlarga uyg'unlashtirish tajribasining yorqin namunasi hisoblanadi.

Bugungi kunda o'zbek musiqa pedagogikasining mustahkam poydevorini yaratishda ustoz-san'atkorlar Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Abdusoat Vahobov, Domla Halim Ibodov va ularning shogirdi Yunus Rajabiy singari ustozlarning xizmatlari beqiyosdir. Ularning boy ijodiy faoliyati, pedagogik merosi hamda musiqiy maktablari milliy musiqa san'atimiz taraqqiyotida bebaho o'rin egallaydi. Aynan shu ustozlarning tajribasi tufayli hozirgi kunda talabalarning ijro dasturlari mazmunan ham, shaklan ham boyib bormoqda.

Xulosa. Buxoro maqom maktabi asrlar davomida ustoz-shogirdlik tizimi orqali o'zining falsafiy mazmuni va ijro uslublarini avlodlarga yetkazib kelmoqda. Bugungi kunda bu tizim zamonaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashib, yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. U nafaqat Buxoro maqom maktabi ustozlari bo'lsin, keng qamrovda boshqa maktab ustozlari bo'lsin eng muhim vazifalaridan biri — har bir talabaga individual yondashish, uning musiqaga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va iste'dodini rivojlantirishdir. Bu jarayonda talabaning yoshi, ovozi, psixologik xususiyatlari va o'quv kursi muhim mezon sifatida e'tiborga olinadi. Zero, N. Karimovning ta'kidlashicha, "o'quvchining musiqiy dunyoqarashi va ijrochilik salohiyati ko'p jihatdan pedagogning metodik yondashuviga bog'liqdir" [1].

Shuningdek, dars jarayonida yakka yoki ansambl ijrosi bo'lishidan qat'i nazar, samarali metodikani qo'llash, qiziqarli va mazmunli mashg'ulotlar tashkil etish zarur. Musiqa pedagogining tashabbuskorligi va yuqori professionalligi uning faoliyatida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. A. Qodirov fikricha, "musiqa o'qituvchisining kasbiy mahorati nafaqat bilim berishda, balki talabani san'atga oshno etishda ham asosiy rol o'ynaydi" [2]. Musiqiy ta'lim jarayonida shaxsning estetik dunyoqarashi shakllanadi, musiqiy iqtidorini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Demak, o'z maktabi, ijrochilik uslubi va rang-barang talqinini yaratgan fidoyi musiqa pedagoglari, ustozlari, musiqiy madaniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Karimova N. Musiqiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Qodirov A. San'at pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. Shunday qilib, Buxoro maqom maktabi nafaqat musiqiy meros, balki milliy tarbiya tizimining ham ajralmas qismiga aylangan.
3. Ulmasovich, R. U. (2025). O'zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va umumbashariy qadryatlari. *France-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, 1(3), 8-13.
4. Yuldashev, M. U. (2025). Sharq musiqa madaniyatining pedagogikasi va uning yoshlar tafakkurida aks etishi. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389746>
5. Mamatqulov, M. M. (2025). Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda o'zbek milliy musiqa san'atining o'рни. *Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education (Great Britain)*.
6. Karimova, M. (2025). Shashmaqom cholg'u qismlarining ijrochiligi. *Modern Science and Research*, 4(3), 1002–1008.
7. Borieva, K. R., & Burieva, K. R. (2022). Мақом орындаудағы ән дауыстары: Певческие голоса в исполнении макомов. In *XXI ғасырдағы түркі халықтарының ұлттық орындаушылық өнері: зерттеу* (p. 244).
8. Yuldasheva, F. D. (2020). Инструмент народа – дутор. *Проблемы современной науки и образования*, (7 (152)), 106-108.
9. Matyakubov, Sh. B. (2022). Достижения и недостатки макомного образования с использованием современных технологий в традиции наставничества. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (171)), 92-94.